

**ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI OG'ZAKI
NUTQINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA KORREKSION-
PEDAGOGIK ISH**

HASANOVA SARVINOZ ASHUR QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

2-bosqich 103-guruh talabasi

elnurbekjumayev09@gmail.com

tel: +99899 156 54 94

SHOMUROTOV ULUGBEK MELIKBOBOYEVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti,

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)

ulugbekshomurotov986@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-8004-499X>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni og'zaki nutqini rivojlantirish bo'yicha korreksion-pedagogik ishlar va turli cil mashg'ulotlar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'z: *nuqson. rivojlanish, axloq, zehn, kar, nutq, verbal, ko'rish, eshitish, harakat-vibration, sezgilar, korreksiya*

Kirish. Bolalar hayotida eng muhim bo'lgan maktabgacha davrda bolalarning asosiy malaka va ko'nikmalari tarkib topib jismoniy, ahloqiy, aqliy, mehnat, estetik, ekologik, xuquqiy, iqtisodiy jihatdan tarbiyalanishiga poydevor qo'yiladi. B.D.Korsunskaya, L.Muminova, V.Raxmanova, R.Shomaxmudova, M.Ayupova, I.Kislisina D.Nurkeldiyev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida bolaning shahsi har tomonlama va uygun rivojlanishi uchun tilni egallash zarurligini e'tirof etiladi. Maktabgacha davrda atrofdagilar bilan muloqotda bola tomonidan so'zlashuv nutq o'zlashtirilishini, nutqni eshita olmaydigan kar

bolalar esa mustaqil ravishda, muloqot jarayonida nutqni egallay olmasligini, kar bolalarni maxsus o'qitib borilmasa, ularda ikkilamchi nuqson- soqovlik yuzaga kelishini ta'kidlaydi.

Kar bolaning umumiy kamoloti uning nutqiy rivojlanishi bilan bevosita borliqdir. Ya'ni kar bolalarning nutqi faqat ularning umumiy rivojlanishi negizida shakllanish mumkinligini, shu bilan birga ularning umumiy kamoloti so'zli nutqining rivojlanish darajasiga bogliqligi L.S.Vigotskiy, F.F.Rau, L.P.Noskova, L.A.Golovchis, I.Kislisina, U.Fayziyev, F.Alimxodjayeva va boshqa olimlarning asarlarida e'tirof etiladi.

Ilk davrda kar va eshituvchi bolalar o'rtasidagi farq sezilmaydi, nutqacha bo'lgan davrda kar bolalarga xuddi eshituvchi bolalarga kabi ovoz chiqarish, gugulash, so'ng guldirashdek nutq ko'rinishlari hos bo'ladi. Keyinchalik, risoladagidek eshituvchi bolalar atrofdagilar nutqini eshitib va ularga taqlid qilib gapirishni boshlaganda kar bolalarning nutqi rivojlanmay qoladi, mavjud nutq ko'nikmalari ham so'nib boradi.

Ilk davrdan boshlab kar bolalarning nutqini maxsus rivojlantirib borilsa, ikkilamchi nuqsonlarning paydo bo'lishini oldini olish, rivojlanishidagi yetishmovchiliklarni bartaraf etish imkoniyati paydo bo'ladi. Maktabgacha ta'lim didaktikasida eshituvchi bolaning to'laqonli rivojlanishini ta'minlash uchun hayotining birinchi kunidanoq yo'naltirilgan tarbiyani amalga oshirish zarurligi e'tirof etiladi. Kar bolalar ta'limida ushbu tamoyil bundan ham kattaroq ahamiyatga egadir.

Kar bolalarning maktabgacha ta'limida bolalarning eshitish qobiliyatini pasayish darajasi, vaqti, rivojlanishidagi o'ziga hos xususiyatlari hisobga olingan holda umumiy pedagogik vazifalar bilan uygunlikda maxsus korreksion maqsadlarni amalga oshirish ko'zlanadi

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni har tomonlama kamol toptirish hamda maktab ta'limiga tayyorlash- maktabgacha tarbiya muassasalarning asosiy vazifasidir. Shu bilan birga, kar bolalarning so'zli

nutqini atrofdagi voqelikni idrok etish hamda muloqot qilish vositasi sifatida o'qitirish kabi maxsus vazifa ham amalga oshiriladi. Kar bola eshitish asosida nutqni egallay olmasligi sababli, ularning nutqi o'zgacha yo'nalishda shakllanadi: ya'ni, kar bolarning saqlanib qolgan, ziyon ko'rmagan (ko'rish, eshitish, harakat-vibrasion, sezgi) analizatorlaridan foydalangan holda ularning so'zli nutqi shakllantiriladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi kar bolalarning ta'lim tarbiyasi va nutqiy rivojlanishi quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi:

1. Kar bolalarga ta'lim berishda ularning nutqini o'qitirish vazifasi ularni har tomonlama rivojlantirib borish negizida hal etiladi. Kar bolalarning nutqiy rivojlanishi ularning kundalik hayotida hamda ta'lim dasturida belgilangan barcha faoliyat turlarini tashkil etish jarayonida va uyg'unlikda ta'minlanishi zarur.

2. Ta'limiy, tarbiyaviy va korreksion vazifalar maxsus yo'naltirilgan ta'lim vositasida hal etiladi. Bunda ta'lim berishning umumiy va maxsus metod va usullaridan foydalanib, eshitish qobiliyatining buzilishi bilan bogliq kamchiliklarni kompensatsiyalash vazifalari ko'zlanadi. Maktabgacha yoshidagi kar va me'yorda eshitadigan bolalarga ta'lim-tarbiya berishning farqi nimada?

Ma'lumki, eshituvchi bolaga ta'lim berishning muhim sharti va samarali vositasi xisoblanuvchi so'zli muloqot kar bolalarda maxsus o'qitishsiz shakllanmaydi. Shu sababli, kar bolalarning so'zli nutqini shakllantirish uchun boshqa yo'llar izlash zarurati tushladi.

S.A.Zikov, B.D.Korsunskaya, L.P.Noskova, L.A.Golovchis, U.Fayziyev, F.Alimxodjayevalar tomonidan o'tkazilgan ko'p yillik ilmiy tadqiqotlar va amaliyot natijasida, bevosita muloqotda nutqni o'zlashtirishga yordam beruvchi kompensator vosita daktilologiya ekanligi isbotlandi. Bunda, eshituv orqali nutqni o'zlashtirish, orzaki va daktil nutqni ko'rib idrok etish psixologik jihatdan har xil jarayonlar ekanligini unutmaslik kerak Daktil nutqni

bevosita muloqotda o'zlashtirilishini ta'minlash uchun bolada sensor qobiliyat, ya'ni, ko'rish, harakat, taktil-vibrasion sezgi va idrok, hamda psixik funksiyalar yuqori saviyada bo'lishi talab etiladi. Kar bolalarni talaffuz qilishga, labdan o'qishga maxsus o'rgatish natijasida ogzaki muloqoti rivojlanib boradi. Ogzaki nutqni o'stirish va eshitish qobiliyatni rivojlantirish maktabgacha tarbiya yoshidagi kar bolalar ta'limidagi maxsus vazifalardir. Talaffuzni shakllantirish, labdan o'qishga o'rgatish murakkab jarayonlar bo'lib, yalpi bolalar bilan va alohida mashg'ulotlar uchun ancha vaqt ajratilishini talab etadi. Nutqni egallash chog'ida kar bola yana bir to'sqinlikka duch keladi. Me'yorda eshituvchi bola, gapirishni boshlamasdan ko'pgina so'zlar ma'nosini tushunadi, asta sekin u tanish bo'lgan buyumlar va hodisalar nomini eslab qoladi. Nutqdan foydalanish jarayonida so'zlarning ma'nosi umumlashtiriladi.

Kar bolalarda esa bu jarayon o'zgacha kechadi. Kar bolalarning nutqiy muloqoti cheklanganligi sababli ularning tafakkuri orqada qolib rivojlanadi, nutq vositasida atrofdagi olamni bilish imkoniyati chegaralanadi. Shu sababli kar bolalar bilan tasavvur va tushunchalarni shakllantirish va umumlashtirish yuzasidan ko'proq ish olib borish talab etiladi.

Kar bolalar bogchasida bolalarni keng ma'noda so'zli muloqotga tayyorlash maqsadida o'qishga o'rgatiladi, mustaqil o'qish esa cheklangan nutqiy muloqotni kompensatsiyalash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, maxsus ta'lim-tarbiyaviy va korreksion vazifalardan kelib chiqqan holda, maktabgacha tarbiya muassasalarida mashg'ulotlar hajmi va ahamiyati ko'payadi. Mashg'ulotlar o'yin tarzida o'tkazilsa-da, ular ko'p vaqtni egallaydi va dam olish va erkin o'yin faoliyati uchun kam vaqt qoldiradi. Maktabgacha tayorgalikni ko'rmagan kichik maktab yoshidagi kar bolalarning ta'lim jarayoni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'limidan keskin farq qiladi.

Kar o'quvchlarining nutqiy va umumiy rivojlanishi muayyan ko'rish va sezish sohasidagi tajribasi asosida kechadi. Albatta, bunday hol ta'lim

jarayonini ancha yengillashtiradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi kar bolalar esa tasavvur, bilim va malakalarni nutq bilan uyg'unlikda egallaydilar, bu esa ularning tafakkuri va nutqining o'sishini ta'minlaydi.

Nutqi hali rivojlanmagan kar o'quvchining so'zli nutqining shakllanishi savod (o'qish va yozish)ga o'rgatish bilan bir vaqtda boshlanadi. Bunda so'zni analitik (taxlil qilib) idrok etilishi hamda aniq, ravon gapirish ta'minlanadi. Maktab o'quvchilari tomonidan talaffuzni nisbatan tez o'zlashtirilishi natijasida bevosita muloqotda daktil va ogzaki nutqdan keng foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi. Qiyinchiliklar paydo bo'lganda yozma nutqdan foydalaniladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi kar bolalar esa tovushlarni o'zlashtirishda ancha orqada qoladilar. O'quvchilar alifboning asosiy tovushlar talaffuzini yarim o'quv yil davomida o'zlashtira olsa, maktabgacha tarbiya yoshidagi bola ta'limning uchinchi yiliga kelib, asosiy tovushlarni talaffuz eta olishi kerak. Shuning uchun, daktil nutq, ayniqsa dastlabki uch yilda, maktabgacha yoshidagi kar bolalar nutqini bevosita muloqotda shakllantirish vositasi hisoblanadi.

O'yin bolalarning asosiy faoliyatlaridan biri bo'lib, o'yin jarayonida kar bolalarning bilish jarayonlari shakllanadi. Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, maktabgacha tarbiya yoshidagi kar bolalarning nutqi nutqiy va psixik yetishmovchiliklarni kompensatsiyalash vositasi hisoblanadi hamda ularning nutqi quyidagi tamoyillar asosida rivojlanadi.

1. Kar bolalarning nutqi bevosita muloqotda hamda maxsus mayutulotlarda rivojlantiriladi.
2. Analitik o'qishga (3,5-4)yoshdan boshlab o'rgatib boriladi.
3. Ta'lim jarayonida daktil nutqdan foydalaniladi.
4. Ta'lim jarayonida leksik va grammatik tushunchalar va umumlashtirishlar shakllantirilib boriladi

5. Soʻzli muloqotni kengaytirish vositasi sifatida oʻqishga va hikoyalarni boglanishli bayon etishga oʻrgatishdan keng foydalaniladi. Mazkur tamoyillarga amal qilish uchun nutqni muloqot jarayonida va muloqot vositasi sifatida shakllantirish talab etiladi. Bunday imkoniyat daktil nutqdan foydalanish sharoitida yaratiladi.

Tarbiyalanuvchilar nutqiy qobiliyatini rivojlantirishda pedagogning predmetli va nutqiy xatti-harakatlarga taqlid qilishga oʻrgatish, ularning diqqatini soʻzlayotgan shaxslarga jalb qilish, taqlid asosida soʻzlash koʻnikmalarini shakllantirish koʻzda tutildi. Pedagog xatti-harakatlariga taqlid qilish yirik va mayda motorikani rivojlantirishga qaratilgan «Koʻzgu», «Maymunchalar», «Mana shunday bajar» kabi pedagogik texnologiya jarayonida oʻrgatib borildi. Ularda bolalar turli-tuman harakatlar va tana holatlari, yuz mimikasi va emotsional holatni takrorlashga oʻrgandilar. Nutqning motor-harakat asosini yaratish, shuningdek, keyinchalik daktil nutq shaklini oʻzlashtirish maqsadida asosiy eʼtibor mayda qoʻl motorikasiga qaratildi.

Nutqni rivojlantirishga oid mashgʻulotlarga koʻplab didaktik oʻyinlar kiritildi. Ularning borishi jarayonida bolalar syujetli va didaktik oʻyinchoqlar vositasida turli xatti-harakatlarga taqlid qilishga, pedagogning faoliyatini kuzatishga, uning tabiiy qoʻl ishoralari va yuz mimikasi bilan uygʻunlashib ketgan nutqiga javob berishga oʻrgandilar.

Nutqni rivojlantirishga oid mashgʻulotlar mavzuiy tamoyilga rioya qilingan holda tashkil etildi. Maʼlumki, dasturda berilgan mavzular mazmunining bolalar hayotiga yaqin va bogʻliqligi («Oʻyinchoqlar», «Oila», «Mevalar va sabzavotlar», «Oziq-ovqatlar», «Kiyimlar», «Oyoq kiyimlar», «Tana aʼzolari», «Hayvonlar», «Jihozlar», «Idish-tovoqlar», «Bayram», «Ob-havo»), taʼlim muddatlari, muayyan mavsumiy davr bilan bogʻliq holda yil davomida takrorlanib keladi. Tevarak-atrof bilan tanishish, oʻyinlar, tasviriy faoliyat jarayonida mana shu mavzular birdek eʼtibor markazida boʻldiki, bu

nutqiy material mazmuni ustida ish olib borishda puxta ko'rgazmali asos yaratishga imkon berdi. Taqdim etiluvchi lug'at materiali turli maishiy vaziyatlarda, bolalarning erkin faoliyatida, tarbiyachi va surdopedagogning barcha mashg'ulotlarida ishlatildi. Muayyan mavzu bo'yicha nutqiy material hajmining uncha katta bo'lmasligi e'tiborga olib borildi. Bu materiallarning bolalardan turli fikriy va nutqiy faollikni talab qiladigan turli xildagi o'yinlarda, shuningdek, boshqa qator ish turlarida ishtirok etishlari jarayonida ko'p martalab takrorlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Masalan, «Kiyimlar» mavzusi bo'yicha mashg'ulot o'tkazishda har xil kiyimlarni ularning nomlarini atagan holda ko'rib chiqish, turli ko'rinishdagi ko'ylaklar, shimlar va h.k. tasvirlangan rasmlarni tanlash, qirqilgan rasm qismlarini joy-joyiga qo'yib chiqish, kiyimlarning yetishmagan qismlarini chizib to'ldirish, qo'g'irchoqlarni kiyintirish kabi usullardan foydalanildi. Ana shunday pedagogik texnologiya bilan so'z ma'nolari va iboralar mazmunini asosli o'zlashtirish uchun shart-sharoit yaratildi.

Nutqiy muloqotni shakllantirish yetakchi masalalardan biri bo'lganligi tufayli, o'rganish uchun taqdim etilgan so'zlar, ularning ma'nolari aniqlashtirilganidan so'ng, nutqiy muloqot uchun xos bo'lgan sintagmatik aloqalar ustida ishlash maqsadida iboralar tarkibiga qo'shib borildi. Bolalar bilan muloqotda pedagoglar o'z nutqlarini cheklamadilar, hatto, ancha sodda va kundalik turmushda ko'p takrorlanadigan iboralarni tushunish bolalar uchun qiyinchilik tug'dirishini hisobga olib, u yoki bu jihatdan keng qo'llanadigan bazaviy konstruksiyalarning ma'nolarini aniqlashtirish va ular ustida ishlashga ko'proq diqqat qaratdilar. Bunday konstruksiyalar asta-sekin murakkablashuv asosida qo'llanildi. Avvalo, bolalarning kundalik faoliyatini tashkil qilishga yordam beruvchi oddiy da'vat konstruksiyalari qo'llanildi: Aylanishga chiq(-ing). Uxla(-ng). Qo'lingni yuv (art). Qo'g'irchoq (mashina, shar)ni ber (ol, ko'rsat). Kel, o'ynaymiz (rasm chizamiz, uy yasaymiz). Ta'lim-tarbiya jarayonida muloqotga oid (kommunikativ) umumlashmalarni

tushunishga o'rgatish tanish so'zlar va iboralar bilan kattalarga murojaat qilish usuli orqali amalga oshirildi: Halima opa, bering (ko'rsating, oling). Ikkinchi yarim yillikda nutq jarayoniga jummalarning ma'nolarini aniqlashtirish va o'zlashtirish uchun tarkibida hozirgi zamon fe'li bo'lgan ibora-xabarlar kiritib borildi: Ana u bola (xola, qiz bola) yiqilib tushdi (uxlayapti, ovqatlanayapti, yuguryapti, o'tiribdi). Bunday konstruksiyalarning tushunilishini xatti-harakatni rasmda ko'rsatish va uning imitatsiyasi (taqlidi) ni og'zaki va yozma shakldagi global idrok etilayotgan ibora bilan qiyoslash jarayonida ta'minlanishiga, shuningdek, fe'llarning leksik ma'nolarini shakllantirish uchun har bir so'z bildirgan xatti-harakatning turli tasvirlari namoyish etilishiga diqqat qaratildi.).

Yalpi va yakka mashg'ulotlarda, ilgari o'zlashtirilgan nutqiy ko'nikmalarning tez unutilishining oldini olish maqsadida, ta'limning dastlabki bosqichida egallangan lug'atning muttasil faollashtirib borilishiga e'tibor qaratib borildi. Lug'at yangi so'zlar hisobiga ham, tanish so'zlarning yangi shakllarini qo'llash hisobiga ham boyitib borildi. Bunda so'zlarning mavzulararo aloqalari, antonimik aloqalari (kiyin-echin, yoq-o'chir), konversiyali aloqalari (tashla – il, yuvintirayapti – yuvinayapti) hisobga olindi.

Turli mavzularga oid mashg'ulotlarda bolalarga tanish bo'lgan so'zlarning ko'plab takrorlanishi hamda yangilarining kiritilishi va o'zlashtirilishiga alohida ahamiyat berildi. Fe'llar va sifatlar boshqa turkumdagi so'zlarga nisbatan faolroq kiritib borildi. Shuningdek, bolalar tomonidan umumlashtiruvchi so'zlarning ma'nolarini yaxshiroq o'zlashtirib olishlari uchun og'zaki nutqda «O'yinchoqlarni olib kel», «Idishlarni yig'ishtir (ko'rsat)» kabi iboralarni qo'llash ko'paytirildi. So'zlarning ma'nolarini yaxshiroq egallanishi maqsadida tarbiyalanuvchilar nutqiga antonimlar (kitoblarni oching – yoping, ruchkalarni tarqat – yig'ib chiq), butun va uning qismlarini bildiruvchi so'zlar (tulkining boshi, tanasi, oyoqlari, dumi bor) ham asta-sekinlik bilan kiritib borildi.

Xulosa. Bolalarning nutqiy ko'nikmalarini faollashtirish, muloqot jarayonida o'zlashtirilgan nutq vositalaridan foydalanish maqsadida pedagoglarning bolalarning so'z vositasida muloqot qilishga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlab borishlari yo'lga qo'yildi. Bunga pedagoglarning bolalarga nutqiy xulq-atvor namunalarini namoyish qilish: salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish, bolalarga iltimoslar va xabarlar bilan murojaat etishlari orqali erishib borildi. Bolalarning «Necha yoshdasan? Qaerda yashaysan? Oilangizda (uyingizda) kimlar yashaydi? Onangning ismlari nima?» kabi og'zaki va yozma savollarga javob berib borishlari shu maqsadga yo'naltirildi.

Mashg'ulotlar, shuningdek, ulardan tashqaridagi ishlarda savollarni idrok etishga, javoblarda o'zlashtirilgan nutqiy materialdan foydalana olish ko'nikmalarining shakllanishiga alohida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda ishning yashirin (yashirib qo'yilgan) predmet bilan, keyinchalik esa yopiq rasm bilan ishlash kabi usullaridan foydalanishga ham keng o'rin berildi. Avvalo bolalar yashirib qo'yilgan predmet haqida so'rab surishtirishga o'rgatilsa («U yerda nima bor?», «U qanday?», «U kattami (kichikmi)?», «Rangi qanaqa?» kabi), so'ng kattalarning parda ortida bajarayotgan xatti-harakatlari («Ulug'bek nima qilayapti?»), shuningdek, rasmlardagi qahramonlar haqida («U yerda kim bor?», «U bola nima qilayapti?», «Qaysi bola?», «Uning ismi nima?» va h.k.) so'rashga o'rgatib borildi. Bunga dastlab bolalar tablichkalarni o'qish va pedagogga taqlid qilish orqali jalb qilindi.

O'qitishning ijobiy natijasi – deyarli barcha bolalarda dastlabki tasvirlash istagi, shuning o'z maqsadlarini so'z orqadi aniqlash imkoniyati yuzaga kelgan. Bolalarning ba'zilar ishning boshlanishiga qadar qanday ketma-ketlikda harkat qilishlarini aytib berishga harakat qilganlar. Ammo barcha ishning bosqichlarini avvaldan rejalashtirish katta guruhdagi Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ham jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi, ular asosan eng yaqin bosqichlarni aniqlash bilan chegaralanadilar.

O'qitishning eng muhim yutuqlaridan biri bolalarda, nutqiy va shaxsiy aloqqa kirishish hohishlarini, taassurotlar bilan almashishi, birgalikdagi faoliyatning mazmuni bo'yicha kelishib olishlarning yuzaga kelishidir.

ADABIYOTLAR:

1. Rahimova I.I., Ziyavitdinova U.Z., Kamalova Z.X. Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya. Darslik. - T.: "Ma'rifat", 2024. 240 bet.
2. Mo'minova L.R. Maxsus psixologiya. O'quv qodlanma. Toshkent. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2020. - 272 b.
3. Yuldoshev T.A "Umumiy psixologiya". O'quv qo'llanma. – T.: - ***"Firdavs-shox"***- 2024yil.
4. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. T.: O'qituvchi, 2020.